

BOSHLANG'ICH SINFLARDA KO'P XONALI SONLARNI QO'SHISH VA AYIRISHNI O'RGATISH METODIKASI

Gulxanova Fotima Akramjon qizi
Samarqand Davlat Universiteti talabasi
E-mail: gulxanovafotima@gmail.com
Tel: +998990630836

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ko'p xonali sonlarni qo'shishni o'rgatish masalalari, bilim va ko'nikmalari berib o'tilgan.

Kalit so'z: qo'shish, ayirish, ko'p xonali sonlar.

Abstract: In this article, problems, knowledge and skills of teaching addition of multi-digit numbers for elementary school students are given.

Key word: addition, subtraction, multi-digit numbers.

Boshlang'ich sinflarda ko'p xonali sonlarni qo'shish yoki ayirishni o'rgatishda dastlab ularning bir xonali va ikki xonali sonlarni qo'shish va ayirishni yaxshilab o'rganib olganligi alohida ahamiyatga egadir. Bir xonali va ikki xonali sonlarni qo'shish va ayirishni yaxshi o'zlashtirib olgan o'quvchilar uchun ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirishni o'rganishda qiyinchilik tug'ilmaydi. Boshlang'ich sinflarda ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirish o'rgatish uch bosqichda bajariladi. 1) Qo'shish amali amalga oshirilayotganda to'siqqa uchramaydian, ya'ni qo'shganimizda o'ndan oshmaydigan holatlar. 2) Qo'shish amalini bajarganimizda oxiri o'n bilan tugaydigan holatlar. 3) Qo'shish amalini bajarganimizda to'siqqa uchraydigan holat, yani qo'shganimizda o'ndan oshadigan holat. Shu uch bosqich asosida quyida ko'p xonali sonlarni qo'shishni ko'rib chiqamiz.

1) To'siqqa uchramaydian holat: 1-misol:

$3142122 + 4321134$

2 birlikka 4 birlikni qo'shamiz 6 birlik hosil bo'ladi, uni birliklar xonasi ostiga yozamiz. 2 o'nlikka 3 o'nlikni qo'shamiz 5 o'nlik hosil bo'ladi, uni o'nliklar xonasi ostiga yozamiz. 1 yuzlikka 1 yuzlikni qo'shamiz 2 yuzlik hosil bo'ladi, uni yuzliklar xonasi ostiga yozamiz. 2 minglikka 1 minglikni qo'shamiz 3 minglik hosil bo'ladi, uni mingliklar xonasi ostiga yozamiz. 4 o'n minglikka 2 o'n minglikni qo'shamiz 6 o'n minglik hosil bo'ladi, uni o'n mingliklar xonasi ostiga yozamiz. 1 yuz minglikka 3 yuz minglikni qo'shamiz 4 yuz minglik hosil bo'ladi, uni yuz mingliklar xonasi ostiga yozamiz. 3 ta millonliklarga 4 ta millonliklarni qo'shamiz 7 millonliklar hosil bo'ladi, uni millonliklar xonasi ostiga yozamiz. Demak, natijamiz 7463256 ekan.

$3142122 + 4321134 = 7463256$

2) Oxiri o'n bilan tugaydigan holat 2-misol:

65724+34276

4 ta birlikka 6 ta birlikni qo'shamiz 10 ta birlik hosil bo'ladi, 10 ta birlikni 0 ta birlik va 1 ta o'nlikka ajratamiz. 0 ta birlikni birliklar xonasi ostiga yozamiz, 1ta o'nlikni yodda saqlaymiz. 2 ta o'nlikka 7 ta o'nlikni qo'shamiz 9 ta o'nlik hosil bo'ladi. Unga yoddagi 1 ta o'nlikni qo'shamiz 10 ta o'nlik hosil bo'ladi, 10 ta o'nlikni 0 ta o'nlik va 1 ta yuzlikka ajratamiz, 0 ta o'nlikni o'nliklar xonasi ostiga yozamiz, 1ta yuzlikni yodda saqlaymiz. 7 yuzlikka 2 yuzlikni qo'shamiz 9 ta yuzlik hosil bo'ladi unga yoddagi 1 ta yuzlikni qo'shamiz 10 ta yuzlik hosil bo'ladi, 10 ta yuzlikni 0 ta yuzlik va 1ta minglikka ajratamiz, 0 ta yuzlikni yuzliklar xonasi ostiga yozamiz, 1 ta minglikni yodda saqlaymiz. 5 ta minglikka 4 ta minglikni qo'shamiz 9 ta minglik hosil bo'ladi unga yoddagi 1 ta minglikni qo'shsak 10 ta minglik bo'ladi, 10 ta minglikni 0 ta minglik va 1 ta o'n minglikka ajratamiz, 0 ta minglikni mingliklar xonasi ostiga yozamiz 1 ta o'nminglikni yodda saqlaymiz. 6 ta o'n minglikka 3 ta o'n minglikni qo'shamiz 9 ta o'nminglik hosil bo'ladi unga yoddagi 1 ta o'nminglikni qo'shsak 10 ta o'nminglik hosil bo'ladi, uni o'nmingliklar xonasi ostiga yozamiz. Demak, natijamiz 100000 ekan.

$$65724+34276=100000$$

3) To'siqqa uchraydigan holat, ya'ni qo'shilganda o'ndan oshadigan holat.
3-misol:

85427+75695

7 ta birlikka 5 ta birlikni qo'shamiz 12 ta birlik hosil bo'ladi uni 2 ta birlik va 1 ta o'nlikka ajratamiz. 2 ta birlikni birliklar xonasi ostiga yozamiz 1 ta o'nlikni yodda saqlaymiz.

2 ta o'nlikka 9 ta o'nlikni qo'shamiz 11 ta o'nlik hosil bo'ladi unga yoddagi 1 ta o'nlikni qo'shamiz 12 ta o'nlik bo'ladi, uni 2 ta o'nlik va 1 ta yuzlikka ajratamiz. 2 ta o'nlikni o'nliklar xonasi ostiga yozamiz 1 ta yuzlikni yodda saqlaymiz.

4 ta yuzlikka 6 ta yuzlikni qo'shamiz 10 ta yuzlik hosil bo'ladi unga yoddagi 1 ta yuzlikni qo'shsak 11 ta yuzlik bo'ladi uni 1 ta yuzlik va 1 ta minglikka ajratib 1 ta yuzlikni yuzliklar xonasi ostiga yozamiz 1 ta minglikni yodda saqlaymiz.

5 ta minglikka 5ta minglikni qo'shamiz 10 ta minglik hosil bo'ladi unga yoddagi 1 ta minglikni qo'shsak 11 ta minglik hosil bo'ladi uni 1 ta minglik va 1 ta o'n minglikka ajratib 1ta minglikni mingliklar xonasi ostiga yozamiz 1 ta o'nminglikni yodda saqlaymiz.

8 ta o'n minglikka 7 ta o'n minglikni qo'shamiz 15 ta o'n minglik hosil bo'ladi unga yoddagi 1 ta o'nminglikni qo'shsak 16 ta o'n minglik bo'ladi uni o'n mingliklar xonasi ostiga yozamiz. Demak, javob 161122 ekan.

$$85427+75695=161122$$

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E , Tadjiyeva Z «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi» Toshkent:Fan va texnologiya, 2005, 312 bet
2. X.Nazarov, G.Eshqobilova . Matematika o'qitish metodikasi.SamDu .2022y.
3. Matematika umumiy o'rta ta'lim maktablari 3-sinflari uchun darslik.